



QONNING ORGANIZMDAGI FUNKSIYALARI

Sultonova Sitora Faxriddinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti biokimyo kafedrasi assistenti

Askarova Rushana Akbar qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya: *Qon, limfa to'qima suyuqligi bilan organizmning ichki muhitini tashkil qiluvchi suyuq biriktiruvchi to'qima hisoblanadi. Qonning kimyoviy tarkibi juda murakkab bo'lib, unda juda ko'p turli vazifalarni bajaruvchi organik va anorganik moddalar erigan holda bo'ladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri organizm tarkibining nisbiy doimiyligini saqlashdir. Sog'lom odamda qon tarkibining tasodifiy o'zgarishlari nerv-gumoral boshqaruv orqali nisbiy doimiylikka keltiriladi. Biroq, patologik holatlarda bu mexanizm meyoriy holatni ta'minlay olmay qolishi mumkin va bunda uni tarkibidagi moddalarning miqdori kamayishi yoki ko'payishi tomoniga o'zgaradi. Umuman qon tarkibi organizmning turli patologik holatlariga ma'lum darajada o'z tarkibini o'zgartirish orqali javob beradi. Shu sababli tibbiy amaliyotda qon tarkibini analiz qilish muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Rreninangiotezin, suspenziyalik, kolloidlik, retikuloendotelial*

Qon inson organizmida limfa to'qima suyuqligi bilan ichki muhitni tashkil etuvchi, turli xildagi anorganik va organik moddalardan tashkil topgan biriktiruvchi to'qimaning suyuq qismi hisoblanadi. Qonning organizmdagi vazifasi turlicha bo'lib, himoya, transport, trofik, nafas, tana haroratini saqlash, ekskretor, to'qimalarda suv balansini saqlash, gumoral yo'l bilan boshqarishda qatnashadi. Qon o'zida suspenziyalik, kolloidlik va elektrolitik xususiyatni saqlagan bo'lib, bu uning tarkibidagi kation va anionlarga bog'liqdir. Sog'lom odam qon tarkibida tasodifiy yuzaga keladigan o'zgarishlar nerv va gumoral yo'l bilan tartibga solinadi. Patologik jarayonlarda bu jarayonlarni normada ushlab turish buzilishi tufayli uning tarkibidagi moddalar miqdori kamayishi, ortib ketishi yoki tarkibning o'zgarishi kuzatiladi. Shuning uchun tibbiy amaliyotda qon tarkibining analizi alohida ahamiyatga egadir.

Qon plazmasi tarkibidagi oqsillar quruq massaning 6,5- 8,5% ini tashkil etib, ular jigar hamda retikuloendotelial sistemalarda sintezlanadi. Asosan uch guruhga ajratiladi: albumin, globulin va fibrinogen.

Qon plazmasi oqsillari o'ziga xos bir nechta funksiyani bajaradi:

- Qonning onkotik bosimini, qon hajmi doimiyligini saqlash;
- Qonning ivishida ishtirok etish, qovushqoqligini ta'minlash;
- pH doimiyligini saqlash;
- Xolesterin, keton tanachalar, yog 'da eruvchi vitaminlar, mannoza, bilirubin kabi

moddalarni tashish

- Immunitet jarayonlarini ta'minlashda;



- Aminokislotalar zaxirasi ;

Diareya, ko'p qusish kabi hollarda organizm haddan tashqari ko'p miqdorda suv yo'qotilishi natijasida, shu bilan birgalikda ayrim infeksiyon kasalliklarda, γ - globulin sintezi ortishi, miyelomada "miyelom oqsillari" miqdorining ko'p sintez qilinishi natijasida qon plazmasi tarkibida oqsil ortib ketishi kuzatiladi. Bu esa organizmda giperproteinemiya holatini keltirib chiqaradi.

Qon plazmasi tarkibida oqsil miqdorining normadan tushib ketishi, ayniqsa albumin oqsilining pasayib ketishi gipoproteinemiya sabab bo'ladi. Buyraklar kasalligi – nefrozda buyrak orqali ko'p miqdorda albumin chiqib ketishi kuzatiladi, jigarning kasalliklarida esa albumin sintezi pasayib ketadi.

Ko'p hollarda qon plazmasi oqsillari konsentratsiyasi o'zgarmagan holda, lekin oqsillar fraksiyalarining kasalliklarida miqdorining o'zgarishi kuzatiladi. Organizmdagi bu holat disproteinemiya deb ataladi.

Albumin qon plazmasi tarkibidagi barcha oqsillarning yarmidan ko'proq qismini tashkil etib, uning konsentratsiyasi 40-50 g/ l ga tengdir. Albumin tarkibidagi aminokislotalar molekulasida dikarboksil guruhlar mavjud bo'lib, uning manfiy zaryadi 18 ga tengdir. Shu sababdan albumin Na^+ kationlarini ushlab turadi hamda qonning osmotik bosimini ta'minlaydi.

Inson organizmi shikastlanga yoki qattiq kuygan mahalda kapilyar qon tomirlarining o'tkazuvchanligi ortib, hujayralararo suyuqlikka suv, Na^+ kationlari va albuminning ko'p miqdarda ajralishi kuzatiladi, Hujayralararo suyuqlik bilan birgalikda qonning nisbiy miqdori o'zgarib, qon hajmi va qonning bosimi pasayib, organizmni klinik shok holatiga olib keladi.

Yurak kasalliklari, trombozlar, vena kengayib ketishi bilan bog'liq kasalliklarda qon aylanishining sekinlashishi tufayli albuminnig hujayralararo bo'shliqqa chiqishi kuchayadi. Bu jarayon sekinlik bilan borgani uchun qon hajmi reninangiotezin – aldosteron sistemasi ta'sirida asliga keltirib turiladi. Shu sistemaning faoliyati sabab inson organizmida chanqash yuzaga keladi, ammo qabul qilingan suv qondan hujayralararo bo'shliqqa chiqadi va shishlar poydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Norov I. I. et al. Sizing polymer compositions on the base of starch and polyvinyl alcohol //Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. – 2019. – №.11-12. – С. 41-44.

2. Норов И. И.; Илхомов А. А.; Ахмедова Ш. М.; Ниёзов Э. Д. Калава ипларни оҳорлаш учун крахмални полифосфат кислотанинг калийли тузи билан модификациялаб олинган полимер композицияларни реологик хоссаларини тадқиқ қилиш // Science and Education. – 2021. – №.1 – С. 187-195.



3. Э.Д. Ниёзов, И.И. Норов, С.Ф. Султонова. Физико-механические свойства шлихтованной пряжи на основе модифицированного крахмала // Sciences of Europe. – 2021. – №.71 – С. 6-8.

4. С.Ф. Султонова, И.И. Норов, Д.К. Жумаева. Свойства полимерных композиций на основе калиевой соли полифосфорной кислоты и крахмала для шлихтования нитей // Перспективы науки и общества в условиях инновационного развития. – 2021. – Док. Тезисов Ч.2 – С. 11-13.

5. Ниёзов Эркин Дилмуродович; Ортиков Шерзод Шарофович; Норов Илгор Илхомович. Особенности применения в текстильной промышленности синтетических полимерных композиций растворимых в природной воде // Universum: Технические науки. – 2022. – №.4 – С. 47-50.

6. Nazarov S.I.; Sultonova S.F.; Norov I.I. PROPERTY OF YARN TREATED WITH MODIFIED STARCH // Theoretical & Applied Science. – 2022. – №.6 – P. 89-92.

7. I.I. Norov; E.D. Niyozov; M.S. Sharipov; Sh.Sh. Ortiqov. Kraxmal va PFK ning natriyli tuzi asosida kalava iplarni ohorlash uchun polimer kompozitsiyalarni ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari // Ilmiy axborotnoma – 2022. – №.3 – P. 65-70.

8. Sitara Sultonova; Sherzod Ortikov; Ilgor Norov. FEATURES OF APPLICATION IN THE TEXTILE INDUSTRY OF SYNTHETIC POLYMER COMPOSITIONS SOLUBLE IN NATURAL WATER // Universum: Технические науки. – 2023. – №.6 – С. 66-69.

9. Sultonova Sitara; Ilgor Norov. PREPARATION AND STUDY OF MIXED-LIGAND COMPLEXES OF CHROMIUM WITH ACETYLACETONE AND ACETAMIDE// European Chemical Bulletin. – 2023. – №.12 – P. 1055-1062.

10. Султонова С.Ф; Норов И.И. Биологическая роль кобальта в организме // Kimyo va tibbiyot: nazariyadan amaliyotgacha. – 2022. – Док.тезисов – С. 202-204.

11. Бельгибаева Дана Сапаргалиевна; Норов Илгор Илхомович; Султонова Ситора Фахриддиновна. ИЗМЕНЕНИЕ СВОЙСТВ ПРЯЖИ ШЛИХТОВАННОЙ НОВОЙ ПОЛИМЕРНОЙ КОМПОЗИЦИЕЙ // Universum: Технические науки. – 2023. – №.4 – С. 68-70.

12. С.Ф. Султанова. ВИТАМИНЫ И ЕГО БИОХИМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ / «Новости образования: исследование в XXI веке» No 16(100), часть 358-373

13. S.F. Sultanova. VITAMINS AND ITS BIOCHEMICAL IMPORTANCE/ «Новости образования: исследование в XXI веке» No 16(100), часть 1 374-389

14. Султонова С.Ф. СКОРОСТЬ ХИМИЧЕСКОЙ РЕАКЦИИ. ХИМИЧЕСКОЕ РАВНОВЕСИЕ/ SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 12-SON 152-169

15. Sultonova S.F . BIOKIMYO FANINI O'QITISHDA ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASINING AHAMIYATI /SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 6-JILD 12-SON 170-186

16. Sultonova S.F. B GURUH VITAMINLARNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI B GURUH VITAMINLARNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI/ SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 6-JILD 12-SON 134-151



17. S.F. Sulstonova. VITAMINLAR VA UNING BIOKIMYOVIY AHAMIYATI/ SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 6-JILD 12-SON 117-132

18. Sulstonova Sitara Faxriddinovna. KOBALTNING BIOLOGIK FUNKTSIYASI O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 19-SON 1051- 1054

19. Султонова С. Ф. СИНТЕЗ СМЕШАННЫХ ГЕТЕРОЛИГАНДНЫХ СОЕДИНЕНИЙ АЦЕТАМИДА И АЦЕТИЛАЦЕТОНА С ХРОМОМ //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 12-3 (102). – С. 5-8.

20. Sulstonova S., Ilgor N. PREPARATION AND STUDY OF MIXED-LIGAND COMPLEXES OF CHROMIUM WITH ACETYLACETONE AND ACETAMIDE.

21. Sitara S. CHANGE IN THE PROPERTIES OF YARN SIZED BY A NEW POLYMER COMPOSITION BASED ON MODIFIED STARCH //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 315-328.

22. Sulstonova S., Ortikov S., Norov I. Features of application in the textile industry of synthetic polymer compositions soluble in natural water //Universum: Texnicheskiye nauki. – Т. 111. – №. 6. – С. 111.